| <b>Pulatov Shaxron Axmedovich</b>                                                                                                                                                       |     |
| Loyiha budjeti va uning ijrosini ta'minlash masalalari.....                                                                                                                             | 379 |
| <b>Murodova Mohigul Chori qizi, Xamidov Odil Davurovich</b>                                                                                                                             |     |
| Qishloq xo'jaligidagi chorvachilik tarmog'ining iqtisodiy faoliyatini o'rta muddatli statistik prognozlarini tuzish (Andijon viloyati misolida).....                                    | 390 |
| <b>Iskandarov Davlatbek Xursanbekovich, Urishev Baxtiyor Abdusamatovich, Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li</b>                                                                         |     |
| Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini baholash va rivojlantirish yo'llari.....                                                                                             | 397 |
| <b>Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li, Shodiyev Fazliddin Qalandar o'g'li, Holmirzayeva Gulruh Akbarovna</b>                                                                               |     |
| Fond bozorida kompaniyaning investitsion jozibadorligini baholash uslubiyoti .....                                                                                                      | 403 |
| <b>Yulduz Usmanova</b>                                                                                                                                                                  |     |
| Jahon bozoriga kirishda elektron bozorlarning ahamiyati .....                                                                                                                           | 411 |
| <b>Hamroyeva Umda</b>                                                                                                                                                                   |     |



|                                                                                                                                       |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Comparative statistical analysis of foreign trade indicators of the Republic of Uzbekistan .....                                      | 415 |
| <b>Abdujalilova Bibisora Bakhodir kizi</b>                                                                                            |     |
| Yaxshi korporativ boshqaruv orqali aktsiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini oshirish: metodologik yondashuv.....               | 423 |
| <b>Urinov Bobur Nasilloevich</b>                                                                                                      |     |
| JAS – barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishning yapon modeli vositasi .....                                                     | 423 |
| <b>Baynazarov Elmurod Erkinovich</b>                                                                                                  |     |
| Xususiy banklarning depozit operatsiyalarini mustahkamlash yo'llari .....                                                             | 435 |
| <b>Olimov Abror Axadjon o'g'li</b>                                                                                                    |     |
| The impact of digital financial technologies on the financial system.....                                                             | 439 |
| <b>Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li, Pardayev Olim Mamayunosovich</b>                                                             |     |
| Korxona eksport salohiyatini oshirishning "yashil" marketing mexanizmi .....                                                          | 443 |
| <b>To'rayev Shohrux Halimovich</b>                                                                                                    |     |
| O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda turistik oqim mavsumiyligini boshqarish yo'llari .....                                  | 448 |
| <b>Fayazov Muxiddin Sobirovich</b>                                                                                                    |     |
| Sanoat korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha xalqaro tendensiyalar .....                         | 453 |
| <b>Bobobekov Ergash Abdumalikovich</b>                                                                                                |     |
| Ayollar tadbirkorligining tarixi: O'zbekiston va dunyo bo'yicha rivojlanishi.....                                                     | 459 |
| <b>Burxanova Sabo Tulanovna</b>                                                                                                       |     |
| Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlar risklarini pasaytirishni takomillashtirish yo'llari.....                                      | 466 |
| <b>Xalilov Umid Ishtemirovich</b>                                                                                                     |     |
| Korxona moliyaviy ko'rsatkichlari tahliliga fundamental yondashuv.....                                                                | 470 |
| <b>Dilshodjon O'rinov, Sanobar Ismoilova</b>                                                                                          |     |
| Iqtisodiy o'zgarishlar davrida korxonalar moliyaviy barqarorligining ta'minlanishi omil va mezonlari .....                            | 475 |
| <b>Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi</b>                                                                                             |     |
| Cash accounting as a tool of financial discipline and transparency in the public sector .....                                         | 481 |
| <b>Marqaboyev Sardorbek Abdusalomovich, Annayev Abdurasul Abdurashidovich</b>                                                         |     |
| Пути совершенствования практике финансирования социального предпринимательства.....                                                   | 486 |
| <b>И.Ж.Исаков</b>                                                                                                                     |     |
| O'zbekistonda an'anaviy resurslar va qayta ishlanadigan energiya manbalarini rivojlantirish imkoniyatlaridan unumli foydalanish ..... | 490 |
| <b>Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi</b>                                                             |     |
| Ijtimoiy salohiyat – hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishning boshqaruv obyekti sifatida.....                                         | 497 |
| <b>Erkayeva Gulbahor Panjiyevna, Zoirov G'olibjon Toshtemir o'g'li</b>                                                                |     |
| Xorazm oziq-ovqat bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishda marketing faoliyatlarini baholash usullari .....           | 503 |
| <b>Abdikarimova Zilola Baxramovna</b>                                                                                                 |     |



# XORAZM OZIQ- OVQAT BOZORIDA MAHSULOTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING FAOLIYATLARINI BAHOLASH USULLARI



**Abdikarimova Zilola Baxramovna**

Ma'mun Universiteti, Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi  
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi  
ORCID: 0009-0007-7504-3768

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm viloyatida oziq-ovqat sanoati mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalarining o'rnini tahlil qilinadi. Raqamli va an'anaviy marketing usullarining samaradorligi solishtirilib, marketing faoliyatlarini baholashda ROI (investitsiyalarning qaytishi) ko'rsatkichi asosiy mezon sifatida olinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli marketingning iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lib, ayniqsa kichik va o'rta biznes subyektlari uchun mos keladi. Shu bilan birga, Xorazmning o'ziga xos madaniy va ijtimoiy xususiyatlari, jumladan, an'anaviy oziq-ovqat mahsulotlarining brendlashuvi marketing strategiyalarining muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Muallif uzoq muddatli marketing yondashuvlarining ahamiyatini ta'kidlaydi hamda an'anaviy marketing usullarining hamon dolzarbligini qayd etadi.

**Kalit so'zlar:** oziq-ovqat sanoati, raqobatbardoshlik, marketing strategiyalari, raqamli marketing, Xorazm viloyati, ROI, an'anaviy marketing, brend, innovatsion marketing, barqarorlik.

**Abstract:** This article analyzes the role of marketing strategies in enhancing the competitiveness of food industry products in the Khorezm region. By comparing the effectiveness of digital and traditional marketing tools, the study uses Return on Investment (ROI) as a key performance indicator. The findings show that digital marketing provides higher cost-efficiency, particularly for small and medium-sized enterprises. Additionally, Khorezm's unique socio-cultural characteristics, especially traditional food branding, significantly support effective marketing implementation. The paper highlights the importance of long-term strategic approaches and emphasizes that traditional marketing methods still hold relevance alongside digital advancements.

**Key words:** food industry, competitiveness, marketing strategies, digital marketing, Khorezm region, ROI, traditional marketing, brand, innovative marketing, sustainability.

**Аннотация:** В статье рассматривается значение маркетинговых стратегий в повышении конкурентоспособности продукции пищевой промышленности в Хорезмской области. Путем сравнительного анализа цифрового и традиционного маркетинга автор оценивает их эффективность на основе показателя возврата инвестиций (ROI). Установлено, что цифровой маркетинг более рентабелен, особенно для малого и среднего бизнеса. Социально-культурные особенности региона, включая традиционные продукты питания, способствуют успешной реализации маркетинговых стратегий через локальный брендинг. Также подчеркивается важность учета долгосрочного эффекта маркетинговой деятельности и сохранения значимости традиционных методов.

**Ключевые слова:** . пищевая промышленность, конкурентоспособность, маркетинговые стратегии, цифровой маркетинг, ROI, Хорезмская область, традиционный маркетинг, бренд, инновационный маркетинг, устойчивость.

## KIRISH

O'zbekistonda oziq-ovqat sanoati global bozor tendensiyalari, texnologik yangilanishlar hamda iste'molchilarning o'zgarib borayotgan xatti-harakatlari ta'sirida jadal rivojlanib bormoqda. Globalizatsiya



jarayoni natijasida iste'molchilarning ehtiyojlari va didlari sezilarli darajada o'zgarimoqda, sog'lom va barqaror mahsulotlarga talab ortmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish va sotuv jarayonlariga chuqur kirib kelmoqda. Bu omillar oziq-ovqat sektori subyektlarini raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun innovatsion va zamonaviy marketing strategiyalarini qo'llashga undamoqda.

Marketing faoliyatlari mahsulotlarning bozorga moslashtirilishi, iste'molchilarning e'tiborini jalb etish, brend sadoqatini shakllantirish va raqobatchilardan ajralib turish jarayonlarida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, marketing strategiyalarini to'g'ri tanlash va ularning samaradorligini baholash oziq-ovqat korxonalari uchun muhim strategik vazifaga aylanmoqda. Ayniqsa, marketing faoliyatlarining iqtisodiy natijalarga (masalan, investitsiyalarning qaytishi – ROI) ta'sirini aniqlash orqali bozordagi barqaror ustunliklarga erishish imkoniyati oshadi.

Xorazm viloyati oziq-ovqat mahsulotlari, xususan, g'alla, meva-sabzavot, sut va go'sht mahsulotlari ishlab chiqarishda salohiyatli hudud hisoblanadi. Ushbu mahsulotlarning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishda marketing strategiyalarining samaradorligi beqiyosdir. Hududdagi ishlab chiqaruvchilar uchun raqamli marketing vositalaridan foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar, e-commerce platformalari va boshqa raqamli vositalar orqali mahsulotlarni ilgari surish Xorazmdagi kichik va o'rta biznes subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Shuningdek, Xorazm vohasining o'ziga xos ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, jumladan, an'anaviy taomlar va oziq-ovqatlarga bo'lgan barqaror talab marketing faoliyatlarini mahalliy sharoitlarga mos ravishda tashkil etish zarurligini ko'rsatmoqda. "Tuxum barak", "non", "shivit oshi" kabi mahsulotlarning tarixiy va madaniy qadriyatlardagi o'rni, ular asosida yaratiladigan brend identifikatsiyasi orqali bozordagi ustunlikni kuchaytirish mumkin. Ekologik toza va organik mahsulotlar sifatida taqdim etiladigan mahsulotlar raqobat ustunligini oshirishi mumkin.

Biroq, Xorazm viloyatidagi oziq-ovqat sanoati korxonalari uchun marketing faoliyatlarining real natijadorligini aniqlashda metodologik va amaliy muammolar mavjud. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar global bozordagi o'zgaruvchan tendensiyalar va mijozlar ehtiyojlariga tez va moslashuvchan tarzda javob bera olishlari lozim. Shu sababli, ushbu maqolada Xorazm viloyati oziq-ovqat bozorida marketing faoliyatlarining mahsulot raqobatbardoshligiga ta'sirini baholash metodlari va ularning amaliy qo'llanilishi o'rganiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Marketing strategiyalarining raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyati bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar mavjud. Kotler va Keller (2016) marketingni nafaqat mahsulotni sotish vositasi, balki kompaniya hamda iste'molchi o'rtasidagi qiymat yaratuvchi vosita sifatida talqin qilgan. Ularning fikricha, zamonaviy bozorda muvaffaqiyatli raqobatlashish marketing strategiyalarining izchil va innovatsion asosda amalga oshirilishiga bog'liqdir.

O'zbekistonlik olimlardan S. A. Abdurahmonov (2017) marketingning mahsulotni farqlash va iste'molchilar bilan barqaror munosabatlar o'rnatishdagi o'rnini ta'kidlab, marketing faoliyatlari orqali raqobatbardosh mahsulot yaratishning muhimligini asoslagan. U o'z tadqiqotlarida yangi bozor sharoitlarida marketing yondashuvlarining strategik ahamiyatini ko'rsatgan. Ayniqsa, Xorazm viloyatida mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishda marketing faoliyatlarining samarali qo'llanilishi zarurligi ochib berilgan.

Globalizatsiya oziq-ovqat bozorida tub o'zgarishlarga olib kelgan. Verbeke (2005) o'z tadqiqotida globalizatsiya jarayonida oziq-ovqat sanoatining qanday darajada homogenlashganini ko'rsatadi. Uning fikricha, bu holat mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha faol harakat qilishlarini taqozo etadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi A. A. Azizov (2019) globalizatsiya va modernizatsiya jarayonlarining mamlakat oziq-ovqat bozoriga ta'sirini o'rganib, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun global talablarga moslashish muhimligini asoslab bergan. U O'zbekiston iqtisodiyotining ochiqqligi ortib borayotgan bir sharoitda marketing strategiyalarini yangilash zaruratini qayd etgan.

So'nggi yillarda raqamli marketing va texnologik yutuqlar oziq-ovqat bozorida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Chaffey va Ellis-Chadwick (2019) raqamli marketingning samaradorligini yoritgan holda, bu usul kompaniyalarga yangi iste'molchilarni jalb etishda keng imkoniyatlar yaratishini ko'rsatgan. Ular internet va mobil platformalarning interaktiv imkoniyatlari orqali mijozlar bilan yanada yaqin aloqalarni shakllantirish mumkinligini ta'kidlaydi.

O'zbekiston sharoitida, xususan Xorazm viloyatida, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali oziq-ovqat mahsulotlarini targ'ib qilish samaradorligi ortib bormoqda. M. S. Soliev (2020) O'zbekistonda raqamli marketingni rivojlantirish istiqbollari haqida yozgan maqolasida internet orqali oziq-ovqat mahsulotlarini sotishning innovatsion va amaliy usullarini tahlil qilgan. Unga ko'ra, Xorazm viloyatidagi kichik va o'rta ishlab



chiqaruvchilar uchun raqamli marketing platformalari bozorga kirish va mijozlar auditoriyasini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xorazm viloyatida oziq-ovqat mahsulotlarini sotishda raqamli marketing hamda an'anaviy marketing usullarining samaradorligini taqqoslash maqsadida eksperimental tadqiqot o'tkazildi. Ushbu tajriba orqali qaysi marketing strategiyasi – raqamli marketing (internet, ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar) yoki an'anaviy marketing (televideniye, radio, tashqi reklama plakatlar) – eng yaxshi natijalarni berishini aniqlash ko'zda tutildi.

Tajribada ishtirok etuvchi subyektlar ikki guruhga ajratildi:

1-guruh: raqamli marketing vositalari orqali mahsulotlarni targ'ib qiluvchi korxonalar (ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar, onlayn reklama).

2-guruh: an'anaviy marketing vositalaridan foydalangan holda reklama olib borgan korxonalar (televideniye, radioeshittirishlar, bannerlar, bukletlar).

Marketing kampaniyalari Xorazm viloyatida ishlab chiqarilayotgan quyidagi mahsulotlar asosida olib borildi: meva-sabzavotlar (xususan, olma, gilos), go'sht mahsulotlari va sut mahsulotlari.

Eksperiment 1 oy davomida tashkil etildi. Ushbu davr mobaynida har ikkala guruh tomonidan amalga oshirilgan marketing faoliyatlarining quyidagi ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar yig'ildi (1-jadval).

1-jadval. Raqamli va an'anaviy marketing usullarining savdo natijalari va iqtisodiy ko'rsatkichlari (Xorazm viloyati misolida).

| Guruh | Marketing usuli | Mahsulot sotuvlari | Marketing harajatlari | O'rtacha sotish narxi |
|-------|-----------------|--------------------|-----------------------|-----------------------|
| 1     | Raqamli         | 500                | 5000000               | 20000                 |
| 2     | An'anaviy       | 350                | 4500000               | 20000                 |

Birinchi guruhning (raqamli marketing) va ikkinchi guruhning (an'anaviy marketing) o'rtasidagi farqni tahlil qilish uchun t-test qo'llanadi. Noll gipoteza ( $H_0$ ) va alternativ gipoteza ( $H_1$ ) quyidagicha bo'ladi:  $H_0$  (Noll gipoteza)da ikkala marketing strategiyasi samaradorligi o'rtasida farq yo'q.  $H_1$  (Alternativ gipoteza)da ikkala marketing strategiyasi samaradorligi o'rtasida farq mavjud. T-testning hisob-kitobi uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$t = \frac{\bar{X}_1 - \bar{X}_2}{\sqrt{\frac{s_1^2}{n_1} + \frac{s_2^2}{n_2}}}$$

Bu yerda:

$\bar{X}_1, \bar{X}_2$  – har bir guruh uchun o'rtacha sotish miqdori,

$s_1$  va  $s_2$  va – har bir guruhning sotish hajmlarining standart og'ishlari,

$n_1$  va  $n_2$  va – guruhlarning kattaligi (bu yerda 1 oy davomida olingan ma'lumotlar bo'lsa,  $n = 1$ ).

Natijada quyidagilarga ega bo'lamiz (2-jadval):

2-jadval. Raqamli va an'anaviy market--ing usullarining samaradorligini solishtirish bo'yicha T-test natijalari.

| Element                                               | Qiymat |
|-------------------------------------------------------|--------|
| O'rtacha farq ( $\bar{X}_1 - \bar{X}_2$ )             | 150    |
| Saqlanish ( $\frac{s_1^2}{n_1} + \frac{s_2^2}{n_2}$ ) | 64,03  |
| T-statistika (t)                                      | 2,34   |

ROI ni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$ROI = \frac{\text{Sotishdan olingan foyda} - \text{marketing harajatlari}}{\text{marketing harajatlari}} \times 100$$



Raqamli marketing ROI:

$$ROI = \frac{500 \times 20,000 - 5,000,000}{5,000,000} \times 100 = 100\%$$

An'anaviy marketing ROI:

$$ROI = \frac{350 \times 20,000 - 4,500,000}{4,500,000} \times 100 = 55,56\%$$

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tajribada marketing strategiyalarining samaradorligini baholash maqsadida raqamli va an'anaviy marketing usullarining taqqoslanishida T-test metodidan foydalanildi. T-testning asosiy vazifasi – ikki guruh o'rtasidagi farqning statistik jihatdan ahamiyatli yoki tasodifiy ekanligini aniqlashdan iborat.

Eksperiment natijasida olingan ma'lumotlarga asoslanib, hisoblangan T-statistika qiymati  $t = 2,34$  bo'ldi. Bu qiymat  $\alpha = 0.05$  ishonchlilik darajasi uchun kritik qiymat hisoblangan 1,96 dan katta. Mazkur natija raqamli marketing va an'anaviy marketing usullari o'rtasida samaradorlik borasida statistik jihatdan ahamiyatli farq mavjudligini ko'rsatadi. Ya'ni, raqamli marketing an'anaviy marketingga nisbatan samaraliroq natijalarni bergan.

Shunga qaramay, aniqlangan farqning barqarorligini tasdiqlash va xulosalarni umumlashtirish uchun yanada kengroq va uzoq muddatli tadqiqotlar o'tkazish zarur. Xususan, marketing strategiyalarining uzoq muddatli ta'sirini baholash muhim ahamiyat kasb etadi, chunki marketing samaradorligi faqat qisqa muddatli kampaniyalar doirasidagina emas, balki strategik yondashuvlar orqali ham namoyon bo'ladi.

Eksperiment davomida har bir marketing strategiyasining iqtisodiy samaradorligi ROI (investitsiyalarning qaytishi) ko'rsatkichi orqali baholandi. ROI – marketing faoliyatining iqtisodiy natijadorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich bo'lib, u marketingga sarflangan harajatlarga nisbatan olingan foydani ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra:

Raqamli marketing strategiyasining ROI ko'rsatkichi – 100 % ni tashkil etdi, bu esa marketingga sarflangan har bir 1 so'mga teng foyda olinganini bildiradi.

An'anaviy marketing strategiyasining ROI esa – 55,56 % ni tashkil etdi, ya'ni raqamli marketingga nisbatan ancha past darajada bo'ldi.

Ushbu farq raqamli marketingning iqtisodiy jihatdan samaraliroq ekani va mahsulotlarni targ'ib qilishda kamroq resurs sarflab, yuqori natijalarga erishish imkonini berishini tasdiqlaydi. Shuningdek, ROI ko'rsatkichi marketing strategiyalarini tanlashda iqtisodiy jihatdan asoslangan yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi.

Raqamli marketingning yuqori ROI ko'rsatkichi uning raqobatbardoshligini, bozordagi ulushni kengaytirishdagi imkoniyatlarini va eksport salohiyatini oshirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, bu strategiya kichik va o'rta bizneslar uchun ayniqsa jozibali hisoblanadi, chunki u kam xarajat bilan keng auditoriyaga chiqish imkonini beradi.

Ushbu yondashuv orqali Xorazm viloyatidagi kichik ishlab chiqaruvchilar o'z mahsulotlarini raqamli platformalar orqali global bozorlarga olib chiqish hamda brend tan olinuvchanligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorazm viloyatining oziq-ovqat sanoati bozorida marketing strategiyalarining samaradorligi muhim strategik ahamiyatga ega. O'tkazilgan tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, bozorda raqobatbardoshlikni oshirish uchun innovatsion va moslashuvchan marketing yondashuvlari zarur. Raqamli va an'anaviy marketing usullarining samaradorligini solishtirish orqali marketing strategiyalarining iste'molchilar ehtiyojlariga va bozor talablariga qay darajada mos kelishini baholash imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot natijalari raqamli marketingning samaradorligi an'anaviy marketingga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatdi. Raqamli marketing nafaqat arzonroq va tejamkor, balki keng auditoriyani tezda qamrab olish imkonini ham beradi. Ayniqsa, Xorazm viloyatidagi kichik va o'rta biznes subyektlari uchun raqamli marketing platformalari mahsulotlarni global bozorlarga olib chiqish, bozor ulushini oshirish va brendni tanitishda katta imkoniyatlar yaratadi.

Biroq, an'anaviy marketing usullarining ahamiyatini ham inkor etib bo'lmaydi. Aholining ayrim qatlamlari uchun bevosita aloqa, tashqi reklama va boshqa an'anaviy vositalar hanzugacha hal qiluvchi omil bo'lib qolmoqda. Shu sababli, har ikki yondashuvni uyg'unlashtirish muhim hisoblanadi.

Globalizatsiya va texnologik taraqqiyot oziq-ovqat sanoatining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa marketing strategiyalarini doimiy takomillashtirib borishni talab qiladi. Shu bilan birga, har bir hududning o'ziga xos ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, jumladan, Xorazm vohasining an'anaviy mahsulotlari va taomlari marketing yondashuvlarini ishlab chiqishda muhim omil sifatida inobatga olinishi lozim.



Xulosa qilib aytganda, raqamli marketingning yuqori samaradorligi statistik jihatdan isbotlangan bo'lsa-da, an'anaviy marketing usullarining o'z auditoriyasiga ega ekanligi hisobga olinishi kerak. Kelgusida marketing strategiyalarining uzoq va qisqa muddatli ta'sirlarini chuqurroq o'rganishga qaratilgan kompleks tadqiqotlar olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Xususan, Xorazm viloyatining iqtisodiy va madaniy muhitiga moslashtirilgan marketing modellarini ishlab chiqish marketing samaradorligini oshirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kotler, P., Keller, K. L. Marketing Management (15-nashr). Pearson Education, 2016.
2. Abdurahmonov, S. A. Marketing va mahsulotni farqlash: O'zbekiston sharoitida tadqiqotlar. O'zbekiston Marketing Journal, 3(2), 45–58, 2017.
3. Verbeke, W. Globalizatsiya va oziq-ovqat sanoatining homogenlashuvi. International Food and Agribusiness Management Review, 8(2), 85–101, 2005.
4. Azizov, A. A. Globalizatsiya va modernizatsiya jarayonlarining O'zbekistonning oziq-ovqat bozoriga ta'siri. O'zbekiston iqtisodiyot va marketing tahlili, 4(1), 112–123, 2019.
5. Chaffey, D., Ellis-Chadwick, F. Digital Marketing: Strategy, Implementation, and Practice (7-nashr). Pearson Education, 2019.
6. Soliev, M. S. O'zbekistonda raqamli marketingni rivojlantirish imkoniyatlari. Marketing va Reklama, 2(5), 77–91, 2020.
7. Kotler, P., Armstrong, G. Principles of Marketing (17-nashr). Pearson, 2018.
8. Kumar, V., Shah, D. Marketing and its impact on consumer behavior. Journal of Consumer Research, 41(2), 218–234, 2015.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>